

**“RASMIY VA SHAXSIY XATLARNING O’ZARO FARQI”  
MAVZUSINI MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA O’RGANISH**

*Sotiboldiyev Dilhayot  
Qo‘qon DPI O‘zbek tili va adabiyoti  
fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada rasmiy hamda shaxsiy xatlarning o’zaro farqlari haqida ma’lumotlar, shu bilan birgalikda ta’lim tizimida qay tarzda foydalanish haqida ham ba’zi ko’rsatmalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim tizimi, mulohazali, keng fikrli, ichki his tuyg’ularni, dard alam, hayotiy kechinmalar

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida hujjat yuritish qoidalari, hujjatlarning turlari bilan tanishtirib borish g’oyat muhim vazifa hisoblanadi. Chunki, bugun ma’lumoti haqida hujjatni olgan mutaxassis ertaga ijtimoiy hayotning qaysidir sohasida faoliyat ko’rsatadi. U xohlaydimi yo’qmi, hujjat yuritish ishlari bilan shug’ullanishga majbur. Xodim murajaat qiladigan hujjat oddiy arizadan tortib, iqtisodiy, moliyaviy va yuridik mazmunda bo’lishi mumkin.

Muammoli ta’lim o’quvchilar oldiga mavzuga bog’liq holda ma’lum bir muammoni qo’ya bilish va uni aqliy hujum shaklida o’rganish demakdir. Muammoli ta’lim talabalarni fikrlashga, mavzu yuzasidan chuqurroq mulohaza yuritishga, oldin o’rganilgan bilimlarni eslash va yod olishga undaydi.

Bu ta’lim usuli o’quvchining mulohazali, keng fikrli, vaziyatni to’g’ri baholay oladigan va shunga yarasha ish tutadigan shaxs sifatida shakllanishida muhim o’rin tutadi. Muammoli ta’limni darsning ma’lum bir vaqtida qo’llash mumkin, lekin butun boshli bir dars jarayonini muammoli ta’lim asosiga qurib bo’lmaydi. Asosan yangi mavzuni o’rganish jarayonida bu ta’lim usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O’qituvchi muammoli dars jarayonida qo’ylgan muammoga o’quvchilar diqqatini qarata bilishi va uning yechimida barcha o’quvchilarni ishtirok etishiga muvaffaq bo’lishi kerak. Shundagina ko’zlangan maqsadga erishiladi.

Auditoriyada muammoli vaziyat muhitini hosil qilish uchun xat nima? Shaxsiy va rasmiy xatlar haqida qanday ma’lumotga egasiz? Ularning farqli jihatilari nimada? degan savollar tashlanadi.

Muammoli savollarga talabalar o’z bilim darajasida javob berishga harakat qiladilar: Masalan javoblar quyidagicha bo’lishi mumkin:

Shaxsiy xatlar bir kishining ma’lum bir boshqa kishiga yo’llagan xati, rasmiy xatlar esa idora va muassasa, tashkilottomonidan rasman ish yuritish masalalarida yoziladi. Ularning mazmuni bir xil bo’limgani singari shakli ham bir-biridan farq

qiladi.

O'qituvchi talabalarni to'g'ri xulosaga olib kelish uchun yo'naliш berib turishi lozim. Unda javoblar quyidagi ko'rinishga keladi:

Shaxsiy xatlar-kishilar o'rtasidagi fikr mulohazalarni, ichki his tuyg'ularni, dard alam, hayotiy kechinmalarni bayon qilishda keng qo'llaniladi. Shaxsiy xatlar badiiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Shaxsiy xatlar rasmiy xatlardan quyidagi belgilari bilan farq qilinadi. Rasmiy xatlarda zaruriy qismlari mavjud bo'ladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida xat so'zining 9 ta ma'nosi berilgan.<sup>1</sup>

1. Uzoqdagi kishiga biror xabar berish yoki fikrlashish maqsadida, odatda, pochta orqali yuboriladigan biror matn yozilgan qog'oz, noma, maktub;

2. Xatda yozilgan matn, xat matn... Bu o'rinda so'zning birinchi ma'nosi e'tiborga olinadi.

Hozirgi kunda xatlar idoralar va muassasalar, tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi o'zaro faol aloqa vositasi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning qulay usuli sifatida xizmat qilmoqda. Shu ma'noda ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin bo'ladi:

1. Shaxsiy-xususiy xatlar.
2. Rasmiy xatlar.

Xatlarni guruhlarga ajratishda asosan, mazmunga e'tibor berilgan. Ular shaklda o'ziga xosliklarga ega.

Ikki talaba tomonidan tayyorlab kelingan shaxsiy xatlardan namunalar tinglanadi. Birinchi talaba Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidan birinchi maktubini o'qydi, maktub proyektor orqali beriladi: "Hurmatli Anvar aka, assalomu-alaykum. Hammamiz sog' va salomatmiz. Kelin oyim orqaliq berib yuborg'an xatingizni oldiq, sog'lig'ingizni, tinchlig'ingizni o'qib va eshitib juda xursand bo'lдиq: ilohi salomat bo'lsunlar... Ayamdan sizga salom, badiiy so'zni Shayx Sa'diydan o'qursiz deb xatni muxtasar qildim, Ra'no."<sup>2</sup>

Ikkinci talaba A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidagi Otabekning bir maktubini o'qib beradi (proyektor orqali ko'rsatiladi):

Muxtaram qayn otamizga!

Siz bilan meni qorong'u zindonlarga tushirib dor ostilarigacha toprtgan buning ila o'zining vaxshiyona tilagiga yeta olmagan keyin mrning tilimdan soxta taloq xati yozib darvoza yonidagi haydattirishiga muvaffaq bo'lgan va bir gunohsizni shahid etgan Homid ismli bir to'ng'izni nihoyat ikki yillik sargardonlik so'ngida yordamchilari bilan tuproqqa qorishishga muvaffaq bo'ldim... Sizdan bu ulug' gunohi uchun avf so'rab haydalgan o'g'lingiz- Otabek Yusufbek hoji o'g'li!

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. "Moskva", 1981, 318-319-betlar.

<sup>2</sup> Qodiri A. Mehrobdan chayon. Toshkent, 1995, 580-bet.

Maktub o'qib bo'lingandan so'ng doskaga maktubdagi ba'zi so'zlarning ma'nolari yoziladi. Talabalar ularning ma'nolarini topib yozadilar.

Ma'lumki, Navoiy davri, hatto XX asrning oxirlarida ham xatlarning o'rni juda katta bo'lgan.

Savol: Hozirda shaxsiy xatlar qachon yozilmoqda? SMS bu xat bo'ladimi? Unda orfografiya qoidalariga amal qilinadimi? Yuqoridagi holatlarga talabalardan javob olishga erishish va ularga to'g'ri yo'naliш berish o'qituvchining vazifasi.

Xuddi shu o'rinda rasmiy matnlar namunasi ham tarqatiladi. Masalan: ariza, tarjimai hol, shaxsiy ma'lumotnomasi. Proyektorda quyidagi rasmiy matn qo'yiladi.

### **Ilmiy-amaliy seminar o'tkazish haqida**

Qo'qon davlat pedagogika institutida 2023-yil mart oyida "Ta'lim va tarbiya integratsiyasi" mavzuida ilmiy-amaliy seminar o'tkazish rejalashtirmoqda. Seminardan ko'zlangan maqsad – ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, uning nazariy va amaliy tomonlariga bag'ishlangan masalalarni muhokama qilish. Seminar barcha pedagog xodimlarga mo'ljallangan bo'lib, unda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: (masalalar ko'rsatiladi)....

Sizni ilmiy-amaliy seminarda o'z ma'ruzangiz bilan qatnashishga taklif etamiz.

Ma'ruzalarni maxsus to'plam shaklda 2023-yil mart oyida nashr qilish rejalashtirilgan.

Ilmiy amaliy seminarda ishtirok etish va ma'ruza mavzu haqida 2023.02.15 gacha quyidagi manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz.

700170,Qo'qon shahri Istambul ko'chasi 23-uy Qo'qon DPI tel: 55-22-23

Ilmiy ishlar prorektori: N.Jo'rayev

Rasmiy va shaxsiy hujjatlar solishtiriladi, savollar beriladi.

1. Rasmiy va shaxsiy xatlar o'rtasida qanday farq bor?
2. Javob xatni talab qiluvchi xatlarga nimalar kiradi?
3. Ilova,tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat qanday xat hisoblanadi?
4. Shaxsiy xat deganda nimani tushunasiz?

O'quvchi har bir xat turi bo'yicha alohida ishlashi shart. Chunki u ertaga ijtimoiy hayotda qandaydir vazifa bajaradi. Demak, hujjat yuritish ishlarini o'rganishga oddiy yumush deb qaralmasdan, fuqarolik burchi sifatida, yuksak mas'uliyat bilan, shaxsiy faoliyatdagi muhim ko'makdosh sifatida munosabatda bo'lishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. "Moskva", 1981, 318-319-betlar.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. Toshkent, 1995, 580-bet.